



O'RTA MAXSUS TA'LIM MUASSALARIDA "INFORMATIKA" FANINI
KASB YO'NALTIRIB O'QITISHNING AHAMIYATI

Primova Durdonay G'ayratovna,

Aminova Hafiza Obidovna,

Kuziyeva Zebo Kudratovna

BMTI akademik litseyi, o'qituvchilari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada akademik litseylarda "informatika" fanini kasbga yo'naltirib o'qitishning ahamiyati va zarurati haqida so'z boradi. Muallif pedagogik ma'lumotlarga tayanib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida muammoni tahlil qilgan va akademik litseylarda "informatika" fanini kasbga yo'naltirib o'qitishning ahamiyati va zarurati bo'yicha mavjud o'ziga xos jihatlarini o'rgangan.

Kalit so'zlar: Refliksiv, kompetentsiya, malumotlar bazasi, motevatsiya, individual, indikativ, regulyator, algoritm.

Kasbiy fanlardan ta'lim jarayonida akademik litsey o'quvchilariga Microsoft Office va internet dasturlari yordamida amaliy masalalarni mustaqil bajara olishlarini o'rgatish, fan bo'yicha olingan bilim va ko'nikmalar kasbiy faoliyatida foydalanish imkoniyatini yaratadi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar Microsoft Excel, Word, Power Point, MS Access va boshqa dasturlar yordamida nafaqat matnlar bilan ishlashni o'rganibgina qolmay, balki ularda rasmlli, video va diagrammali ma'lumotlar bilan ishlashni, tahrir qilishni va ulardan samarali foydalanishni ham o'rganadilar. Bundan tashqari, o'rganuvchilar internetdan kerakli ma'lumotlarni qanday qilib topish, ishonchli manbaalardan foydalanish va ular ustida amallar bajarish ko'nikmalarini ham egallaydilar. Axborot texnologiyalari bo'yicha akademik litsey o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish informatika fanining asosiy kursida ham, to'garak mashg'ulotlarda ham amalga oshiriladi. Turli tayyorlov yo'nalishlarida (fizika va



matematika, gumanitar fanlar, kimyo va biologiya, xorijiy tillar) informatika fanidan auditoriya soatlari deyarli bir-biridan farq qilmaydi. Lekin kasbiy fanlar, asosan, fizika va matematika fanlari chuqurlashtirib o'qitiladigan tayyorlaov yo'nalishlari uchun tegishli. Ushbu yo'nalish bitiruvchilariga "Texnilk dasturchi" kasbiy kvalifikatsiya beriladi.

Informatika fanidan ta'lif jarayonida biz akademik litsey o'quvchilarini kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga e'tibor qaratamiz. O'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish dasturi (o'qituvchi, didaktik vositalar va boshqalar tmonidan amalga oshiriladi va tartibga solinadi.) va o'quvchining reflektor holatiga asoslanadi, bu jarayonda ichki regulyator vazifasini bajaruvchi indikativ asos bo'lib xizmat qiladi, natijada faoliyat ko'nikmaga aylanadi. Informatika fanidan kasbiy tayyorgarlikning asosini tashkil etuvchi asosiy ta'lif shakli sifatida har bir o'quv elementi uchun ishlab chiqilgan laboratoriya mashg'ulotidan foydalanamiz. Laboratoriya mashg'uloti jarayonida o'quvchilar mustaqil ravishda bilimlarini chuqurlashtiradilar, internet texnologiyalari bilan ishlash bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Bunday yondashuv, dasturiy vositalar bilan ishlashning o'ziga xos metodlarini o'rgatish imkonini beradi, akademik litsey o'quvchilarida ijodiy fikrlash, refleksiv o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashadi. O'quvchilarning informatikadan laboratoriya mashg'uloti bilan mustaqil ishlash algoritmini ko'rib chiqamiz. Algoritm orqali biz belgilangan maqsadga erishish yoki kasbiy vazifani hal etishga qaratilgan harakatlar ketma-ketligini bajarish uchun aniq va tushunarli ko'rsatmani nazarda tutamiz. Laboratoriya mashg'uloti bilan ishlash algoritmi belgilanadi. O'rganilayotgan o'quv elementi bo'yicha laboratoriya mashg'uloti bo'yicha uslubiy qo'llanma ishlab chiqiladi va o'quvchilarga taqdim etiladi, uslubiy qo'llanma orqali o'quvchilar nazariy blok orqali ishlaydilar va qo'llanmada bayon yetilgan vazifani bajarishga kirishadilar. O'qituvchi faoliyat jarayonini nazorat qiladi. Topshiriqni bajargandan so'ng, agar natija kutilganlarga mos kelsa, o'quvchilar

laboratoriya ishida taklif qilingan savollarga javob beradilar. Agar ishlab chiqilgan laboratoriya ishlanmasi o'quvchi uchun qiyinchilik tug'dirmasa, u laboratoriya ishi davomida olingan faoliyatning indikativ asosiga tayanib, loyiha vazifasining ushbu o'quv elementiga mos keladigan qismini aniqlaydi. Odatda, ko'pchilik o'quvchilar o'z faoliyatlarini bevosita amaliy topshiriq bilan boshlashni afzal ko'radilar va faqat qiyinchiliklarga duch kelgan hollardagina nazariyaga murojaat qiladilar. Ba'zi o'quvchilar paydo bo'lgan kasbiy muammolarni hal qilishni afzal ko'radilar, ular nazariyani tahlil qilish bilan bezovta emas, balki do'stlariga yordam berish uchun yoki bevosita o'qituvchiga murojaat qilishadi. O'qituvchining vazifasi bu jarayonni nazorat qilishdan iborat, chunki bunday faoliyat o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini yoki kasbiy faoliyatning indikativ asosini shakllantirishga yordam bermaydi. Ishlab chiqilgan algoritmni ta'lim jarayonida qo'llash o'quvchilarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish imkonini beradi:

- O'uchiga: • jarayoniy fikrlash; • mustaqil ish ko'nikmalari; tahlil va umumlashtirish ko'nikmalari;
- faoliyat usulini boshqa vazifaga o'tkazish ko'nikmalari; • ijodiy fikrlash; • faoliyatni aks ettirish qobiliyatları; • o'z-o'zini baholash ko'nikmalari.
- O'qituvchiga: • o'quv jarayonini individuallashtirish; • bilish faoliyatini boshqarish darajasini oshirish va o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish; • iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va individual ishslash.

O'quv elementini o'zlashtirish motivatsiyasi uning loyiha faoliyatida amaliy tadbiq etilishi tufayli shakllanadi. Psixologik va pedagogik nazariyalardan foydalanish, xususan, shaxsning faoliyati nazariyasi, muammoli ta'lim nazariyasi o'quv jarayonini muayyan muammoni hal qilish uchun yo'naltirishni nazarda tutadi. Bu esa o'quvchilarning loyihaviy faoliyatini tashkil yetish bo'yicha kasbiy muammoli vazifalar majmuuni ishlab chiqish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A Abduqodirov, R.Salomova. Informatika va hisoblash texnikasi asoslari. 10-sinf darslik. T.: —O'qituvchi, 2005 й. -144 b.

2. A.B.Ahmedov. N.I.Taylaqov. Informatika. Akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun darslik. T.: —O'zbekiston, 2004 й. -272 b.
3. A.Sattorov. M.T.Baqoyev, A.O.Abduqodirov. Informatika va axborot texnologiyalari. Akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun darslik. T.: —O'qituvchi, 2008 й. 272 b